



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**



## XIV-XV YUZYILLIK OBIDALARIDA “GULSHAN UL-ASROR” ASARIDA IFODALANGAN QORISHIQ SO‘ZLAR

### MIXED WORDS EXPRESSED IN THE WORK “GULSHAN UL-ASROR” FROM THE MONUMENTS OF THE XIV-XV TH CENTURIES

**Tashmatova Nilufar Choriyevna**

O‘qituvchi,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent  
davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti  
O‘zbekiston, Toshkent

E-mail: [tashmatovanilufar365@gmail.com](mailto:tashmatovanilufar365@gmail.com)

ORCID: 0000-0002-0693-2808

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./YBVO4497](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./YBVO4497)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Xorazmda yashab ijod etgan mumtoz adabiyotimiz yetuk namoyondalaridan Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” masnaviysida o‘zlashma so‘zlardan turkiy qo‘shimchalar yordamida yasalgan qorishiq so‘zlar tasnif va tahlil etilgan. Turli tillarga mansub xalqlarning o‘zaro hamkorligi, qo‘shnichilik va savdo-sotiq aloqalari ular tillarining taraqqiyotiga, birinchi navbatda, leksikasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatishi tabiiy. Natijada, so‘z almashinish va o‘zlashtirish holatlari yuz beradi.

**Kalit so‘zlar:** turkiy so‘z, o‘zbek tili, masnaviy, fors-tojik tili, arabcha so‘z, o‘zlashma so‘zlar, leksema.

**Annotation.** This article classifies and analyzes the compound words formed from borrowed words with the help of Turkic suffixes in the masnavi of Haydar Khorezm, one of the outstanding representatives of our classical literature, who lived and worked in Khorezm at the end of the XIVth and beginning of the XVth centuries. It is natural that the mutual cooperation, neighborhood and trade relations of peoples belonging to different languages have an impact on the development of their languages, primarily on their lexicon. As a result, word exchange and assimilation occur.

**Keywords:** Turkish word, Uzbek language, masnavi, Persian-Tajik language, Arabic word, loanwords, lexeme.

Tillar ichki imkoniyatlar, so‘z yasash, uni yangi ma’nolarda qo‘llashdan tashqari, tashqi omillar ta’sirida, ya’ni boshqa tillardan lisoniy birliklarni qabul qilish orqali ham rivojlanib, boyib boradi. Bu jarayon muayyan til qonuniyatlari asosida

amalga oshadi. “Jahonda hech bir til yo‘qki, uning lug‘ati faqat o‘z so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lsin. Boshqa tillardan olingan so‘zlar yo o‘sha tilda o‘z shaklini qanday bo‘lsa, shundayligicha saqlaydi yoki uning leksik tizimi, tabiati, grammatik qurilishi, so‘z yasalishi va imlo qoidalariga uyg‘unlashadi” [Турсунов, 1995: 34].

O‘zbek adabiy tili tarkibidagi so‘zlar tarixiy shakllanishi jihatidan faqat turkiy tillarga xos bo‘lmay, shungdek fors-tojik, arab, mo‘g‘ul, rus tillaridan va oz bo‘lsada, xitoy tilidan kirib kelgan leksemalardan iborat. O‘zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichiga nazar solinsa, talay so‘zlarning turli davrlarda xilma-xil ijtimoiy omillar bois o‘zlashganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Masalan, forscha- tojikcha qatlam o‘zbek va tojik xalqlarining qadimdan bir hududda yonma-yon yashab, bir-biri bilan ijtimoiy-siyosiy va madaniy munosabatda bo‘lganligi arabcha leksemalar esa, asosan, ilmiy, diniy, kitobiy til va fors-tojik tili vositasi, shuningdek, qisman og‘zaki nutq orqali kirib kelgan. Haydar Xorazmiy “Gulshan ul-asror” masnaviysida ham o‘zlashma qatlama doir leksemalardan turkiy qo‘shimchalar yordamida yasalgan qorishiq so‘zlar o‘z ifodasini topgan. Bu esa o‘sha davr leksikasi haqida oz bo‘lsada ma‘lumotga ega bo‘lish imkonini beradi.

a) -süz/-siz//-suz/-süz. Mazkur affiks asosan o‘zlashma otlarga qo‘shilib, qo‘shimchasi ot o‘zakdan anglashilgan ma’noga ega emaslikni ifodalovchi sifatlarni hosil qilgan:

1) *vâsitasiz* “vositasiz” < *vâsit* “o‘rta, o‘rtadagi”, bu arabcha so‘z *vâsitat(un)* shakliga ega (ARS, 887); asli “o‘rtada bo‘ldi” ma‘nosini anglatuvchi *vasata* fe‘lidan (ARS, 887) hosil qilingan I bob aniq nisbat sifat-doshi *vâsit(un)* so‘zidan (ATG, 147) - *at(un)* qo‘shimchasi bilan yasalgan ot bo‘lib (UAYa, 500), o‘zbek tiliga cho‘ziq *â* unlisini *â* unlisiga, itqi undoshini *t* undoshiga almashtirib, so‘z oxiridagi *t* tovushini tashlab qabul qilingan: *vâsitat* → *vâsita (vosita)*; “ biror ishni amalga oshirishda tashlab qabul qilingan: *vâsitat* → *vâsita (vosita)*; “ biror ishni amalga oshirishda ko‘maklashuvchi narsa” ma‘nosini anglatadi [Раҳматуллаев, 2003: 96].

*Rizq iyasi yaz-u kuz-u va ya qîš,*

*Vâsitasiz qildi meni parvariš! (18A-5)*

2) *ibratsiz* “ibratsiz” < *ibrat* “ibrat, o‘rnak”, bu arabcha so‘z *ibârat(un)* shakliga ega (ARS, 494); o‘zbek tiliga kasrali ayn tovushini *i* tovushiga almashtirib qabul qilingan: *ibârat* → *ibrat*; asli “tushuntirdi ma‘nosini anglatuvchi *ibâra*<sup>2</sup> fe‘lining (ARS, 494) I bob masdari bo‘lib (ATG, 143), arab tilida “o‘git”, “ergashishga arziydigan namuna” kabi ma‘nolarni anglatadi (ARS, 494), o‘zbek tiliga ikkinchi ma‘nosi bilan qabul qilingan [Раҳматуллаев, 2003: 155].

*Garçi kezar çirkin-u uryan özi,*

*Lafzi ibâratsiz ayitqan sözi. (18B-8)*

3) *fâydasi*z “foydasi”z < *fâyda* “foйда”, bu arabcha soʻz *fâʼidat(un)* shakliga ega (ARS, 615); oʻzbek tiliga choʻziq *â* unlisini *â* unlisiga, kasrali hamzani *y* tovushiga almashtirib (Tojik tilida asliga yaqin *i* tovushiga almashtirilgan: foйда – TjRS, 412), soʻz oxiridagi *t* tovushini tashlab qabul qilingan: *fâʼidat* → *fâʼida* (*fayda*); “foydali boʻldi” maʼnosini anglatuvchi *fâʼda* feʼlidan yasalgan asliy sifat *fâʼid(un)* soʻzidan (ATG, 43) *-at(un)* qoʻshimchasi bilan yasalgan ot boʻlib (UAYa, 500), “biror kishi yoki narsadan tegadigan naf”, “xarajatni chiqarib tashlagandan keyin qoladigan daromad”, “qarz oluvchi qarz beruvchiga toʻlaydigan qoʻshimcha haq” maʼnolarini anglatadi [Рахматуллаев, 2003: 470].

*Kim, ne sababdin qilodursen bu jöš,*

*Foidasiz neča tuganmas xuruš! (21B-10)*

b) *-liğ/-lig//-liq/-lik//-luğ/lüg//-luq/-lük* affiksi ishtirokida, asosan, oʻzakdan anglashilgan narsaga egalik maʼnosini bildiruvchi mavhum otlarni ifodalovchi leksemalar hosil qilingan: *gumánlik, bedárlik, ravánlik, havádárlik, hušyárlík, rástliq, sazávárlík, havádárlík, xušliğ*. *Xušliğ* “yoqimliliği, yaxshiligi” < *xuš* “yoqimli, yaxshi”, bu sifat PRSda [xosh], TjRSda xush shaklida (432) keltirilgan; oʻzbek tiliga tojikcha shakli olingan; “yaxshi”, “yoqimli”, “kelishgan” kabi maʼnolarni anglatadi [Рахматуллаев, 2003: 246].

*Bir neča kün dunyáda ján xušliğ*,

*Saltanat erür bu jahán xušliğ* (16A-4).

Keltirilgan misollardan va obida leksikasini oʻrganish mobaynida shu narsa ayon boʻldiki, masnaviy tilida turkiy hamda oʻzlashma leksik birliklardan yangi soʻzlar hosil qilishda ot yasovchi *-liğ/-lig//-liq/-lik//-luğ/lüg//-luq/-lük* va sifat yasovchi *-siz/-siz//-suz/-süz* affikslari faol ishtirok etgan. Bu jihat oʻz navbatida, ushbu qoʻshimchalarning XIV-XV yuzyilliklarda sermahsul boʻlganligini koʻrsatadi. Demak, leksik fondning shakllanish va boyib borish jarayonini kuzatishda oʻzga tillarning turkiy adabiy tillar, jumladan, oʻzbek adabiy tili rivojida tutgan oʻrnini aniqlash, ekstralingvistik omillarni toʻgʻri belgilashda koʻhna yodnomalar til xususiyatlarini atroflicha tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

### Adabiyotlar:

1. Haydar Xorazmiy. “Gulshan ul-asror” (Mahzan ul-asror) qoʻlyozmasi. OʻzRFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. № 37
2. Муталибов С. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк. – Тошкент: Фан, 1959. – Б. 87;
3. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II. – Тошкент: Университет, 2003. – Б. 96.



4. Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 34.
5. XIII-XIV асрлар туркий адабий ёдгорликлар тили. – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 207.
6. Asadov, M. T. (2021). Fransuz-o ‘zbek tarjimachiligi istiqbollari. *O ‘zbekiston: til va madaniyat*, 1(3), 125-134.
7. Kenjayeva D. “BOBURNOMA” DA ANTROPONIMLARNING ETIMOLOGIK O ‘ZIGA XOSLIGI //Conferences. – 2025. – T. 1. – №. 1.
19. Khakimova M. The human factor in the formation of abstract vocabulary. // [Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities](#), 2021. № 11. - P. 124-126.
20. Komilova, G. R., & Xolmanova, Z. (2020). *Formation and development of axiolinguistics. International Journal on Integrated Education*, 3(9), 128–131. <https://doi.org/10.31149/ijie.v3i9.602>
21. Mukhammadiyeva, D. (2022). Principles of translating the proverbs and adages in “Baburname”. *Turkology*, (1).
22. Urazova Iqbol, Parvin Salihi. [Research of Turkish Written Sources of The 2nd Half of The 14th Century](#). [Research of Turkish Written Sources of The 2nd Half of The 14th Century](#)
23. Xolmanova, Z. T., Shamsiyeva M.B. 2022. “Bolada bilingvizmni shakllantirishda ona tilining ahamiyati”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 2 (1): 6-13
24. Рашидова, Н. Б. (2017). Аффиксация как один из способов словопроизводства терминов сферы образования. In *Язык и литература в поликультурном пространстве* (pp. 72-75).
25. Zulkhumor, K. (2021). Semantics and lingu-culturological features of old uzbek lexemans. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 488-497.
26. К М. [«Kutadgu bilig» metnindeki eş sesli kelimelerin bedif ehemmiyeti](#). Uluslararası Türk Dili kurultayı, 161